



## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

**Namangan viloyati statistika boshqarmasiga 2020-yilning yanvar-may oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan 83 ta murojaatlar kelib tushgan. Jumladan:**



**Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullaridagi hamda boshqarmaning ishonch telefoni orqali kelib tushgan og'zaki murojaatlar**

**11**



**Boshqarmaning elektron pochta orqali kelib tushgan elektron murojaatlar**

**9**



**To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar**

**63**



# Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

**35.0 %**

*29 tasi korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan.*



**10.8 %**

*9 tasi nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan.*




**30.1 %**

*25 tasi statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan.*



**10.8 %**

*11 tasi topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan.*




**10.8 %**

*9 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.*



# Murojaatlarni ko'rib chiqish holati




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 53 tasiga chora ko'rildi, 29 tasi tushuntirildi, 1 tasi ko'rib chiqish jarayonida, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha:

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 31.3 % (26 ta) jismoniy shaxslar va 68.7 % (57 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



● Jismoniy shaxslar ● Yuridik shaxslar



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Namangan shahri 48 ta (o'tgan yilning shu davrida 78 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Mingbuloq tumanidan 3 ta (3 ta), Kosonsoy tumanidan 5 ta (1 ta), Namangan tumanidan 4 ta (8 ta), Norin tumanidan (5 ta), Pop tumanidan (4 ta), To'raqo'rg'on tumanidan 6 ta (5 ta), Uychi tumanidan 4 ta (4 ta), Uchqo'rg'on tumanidan 3 ta (1 ta), Chortoq tumanidan 1 ta (1 ta), Chust tumanidan (6 ta) Yangiqo'rg'on tumanidan 2 ta (5 ta), boshqa viloyatlardan 7 ta (3 ta), boshqa respublikadan (1 ta) murojaatlar kelib tushgan.



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi

**Viloyat statistika boshqarmasi  
Jismoniy va yuridik shaxslarning  
murojaatlari bilan ishlash va ijro  
intizomi nazorati bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: A.Abdayev  
(69) 227-85-06**

**e-mail: [namstat@umail.uz](mailto:namstat@umail.uz)**

**Manzil: 160133, Namangan sh,  
N.Nomongoniy ko'chasi, 14-uy**

## **Eslatib o'tamiz:**

*O'z faoliyatingizda statistika idoralari  
bilan bog'liq masala va muammolarga duch  
keldingizmi, statistik ko'rsatkich yoki tahliliy  
ma'lumot olishni xohlaysizmi?*

*Unday bo'lsa, quyidagi raqamlarga  
murojaat eting:*



**Ishonch telefoni:  
(69) 227-84-84**



**Viloyat statistika boshqarmasi  
rahbariyatiga bevosita murojaat etish:  
(69) 227-85-08**